

SIDNI SHELDONNING “TAQDIR TEGIRMONI” ASARIDA QO‘LLANGAN FRAZEOLOGIK BIRIKMALAR VA TERMINLARNING RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI HAQIDA MULOHAZALAR

Sarvar Sog‘lomov

Qarshi DU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14514374>

Annotatsiya: Maqolada Sidni Sheldonning 1987 yilda yozilgan 1988 yilda roman asosida aynan shu nomda film suratga olingan “Taqqdir tegirmoni” (Windmills of the gods) romani tahlilga tortilgan. Asarda Kanzas shtat universiteti professori Meri Eshliga AQSH prezidenti Pol Ellison tomonidan elchi bo‘lish taklif qilinadi. U taklifni rad etadi, chunki uning eri, doktor Edvard Eshli tibbiy faoliyatni tark etishni istamaydi, Meri esa Edwarddan ajralishni xohlamaydi. Uning fikricha, Kanzas shtatidagi kichik shaharchada chet eldagi elchidan ko‘ra yaxshi shifokor topish qiyinroq. Eri to‘satdan yo‘l-transport hodisasida vafot etganida, Eshli hayotidagi bo‘shliqni to‘ldirish uchun Prezidentning taklifini qabul qiladi. U Ruminiyaga, Temir Parda ortida yuboriladi va elchi roliga moslashadi.

Kalit so‘zlar. Sidni Sheldon, “Taqqdir tegirmoni”, frazeologik birikmalar, terminlar, tarjima.

U elchixonada o‘zidan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan Mayk Sleydni bir zumda yomon ko‘rib qoladi, lekin uning tayinlanishi prezidentning buyrug‘i bo‘lgani uchun uni lavozimidan bo‘shata olmaydi. Uning elchi sifatidagi muvaffaqiyati uni Qo‘shma Shtatlar va Ruminiya o‘rtasidagi tushunish uchun jamoatchilik yuziga aylantiradi. U beva qolgan frantsuz shifokori Lui Desforj bilan munosabatlarni boshlaydi, chunki Lui Desforj uni o‘g‘irlab ketish va zaharlash urinishlaridan qutqaradi. Ma‘lum muddatdan keyin Desforj Mayk Sleyd tomonidan o‘ldiriladi.

Ushbu hikoya qamrab olgan romanda butun dunyoni Sharqiy va G‘arbiy bloklarga ajratishga urinayotgan, siyosiy voqealarni uyushtiruvchi, kuchli odamlardan iborat yashirin jamiyat – “Ozodlik kurashchilari” a‘zolarining yig‘ilishlari ko‘rsatilgan. Ular Merini mahv etish uchun Anxel (Farishta) laqabli xalqaro qotilni yollashadi, ammo ma‘lumotlar sizdiriladi va urinishning oldi olinadi.

Romanning avj nuqtasida Mayk Sleyd “Ozodlik kurashchilari” tashkiloti a‘zolari safiga kirib borgan va ularning rejalarini barbod qilgan agent ekani, Desforj esa Merini Anxel tomonidan omma oldida o‘ldirishi uchun qutqarib qolgan “Ozodlik kurashchilari” tashkilotining agenti ekanligi ma‘lum bo‘ladi. “Ozodlik kurashchilari” tashkilotining a‘zolari hibsga olindi va ularning raisi (AQSH vitse-prezidenti ekanligi ma‘lum bo‘ldi) muvaffaqiyatsiz suiqasd uchun pul to‘lashdan bosh tortganidan keyin Anxel tomonidan o‘ldiriladi.

Ushbu tahdid bartaraf etilgach, Meri o‘z muvaffaqiyati siyosiy vosita sifatida foydalanish uchun yaratilgan deb hisoblab, o‘z lavozimini tark etishga harakat qiladi, ammo prezident uni Sleyd himoyasi ostida o‘z lavozimida qolishga ishontiradi. Oxirgi sahnada “Ozodlik kurashchilari” tashkiloti faqat ayollardan tashkil topgan yana bir yacheykasi (ehtimol, o‘lgan Veyepning bevasi boshchiligidagi) keyingi harakatlarini muhokama qilayotgani ko‘rsatilgan.

Qisqacha qilib aytganda, Sidni Sheldonning ushbu romani tarixning eng chirsillagan, eng katta evrilishlar sodir bo‘layotgan 80-yillarning o‘rtalaridagi davrni ikkita mamlakat, AQSH va Ruminiya davlatlarining siyosiy aloqalarini aks ettirish orqali tasvirlaydi. Nega bu davr tarixning eng chirsillagan davri edi? Chunki bu davrda Ikkinchi jahon urushidan keyin o‘zlari istamagan holda sotsialistik ta’sirga tushirilgan ba’zi g‘arb davlatlari, xususan Ruminiya ham

sotsialistik zanjirlardan xalos bo'lishga urinayotgan vaqtlar edi. Bu vaqtga kelib "Temir Parda" ortidagi mamlakatlar yoki "Sotsialistik lager" deb atalgan ulkan hududni qamrab olgan, kommunistik g'oyalar asosiga qurilgan davlatlarning yangicha fikrlovchi rahbarlari va xalqi kommunistik zanjirlarni uzib, erkin demokratik davlat qurib dunyoga chiqishga bel bog'layotgan edilar.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi Sheldonning "Windmills of the gods" (Taqdir tegirmoni) asarining rus va o'zbek tillariga qilingan tarjimasini tahlil qilish, aslyatda qo'llangan frazeologik birliklarning rus va o'zbek tillarida qanday ifodalanganligini qiyosiy o'rganishdan iborat.

Asarda tili juda boy. Asarda ko'plab idiomalar, kollokatsiyalar, siyosiy terminlar, toponimlar va turli xil stilistik uslublar (metoforalar, metonimiyalar, va hok.) qo'llangan.

Misollarga murojaat qilamiz:

1. Aslyatga qo'llangan idomalarining rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarda qiyosiy o'rganilishi:

"They found a new **white knight** to champion: Paul Ellison" [1:14].

"И нашли для этой миссии **рыцаря в белых одеждах**: Пола Эллисона" [2:11].

"Aniqrog'i, ular o'zlari uchun yangi, **kelajagi porloq nomzod** sifatida Pol Ellisonni tanlagan edilar" [3:145].

Aslyatdagi matnda berilgan "**white knight**" jumlasini "oq jo'mard" deb tarjima qilinsa hech qanday ma'no anglanmaydi. Ingliz adabiyotida "**white knight**" (**oq jo'mard**) iborasi quyma mifologik obraz hisoblanadi va "**black knight**" (**qora jo'mard**) ga kontrast qilib olinadi. "**White knight**" (**oq jo'mard**) o'rta asrlar adabiyotida darbadar jo'mard bo'lib, ezgulik timsoli hisoblanib yovuzlikka qarshi kurashadi va muhtojlarga yordam berib yuradi. "**Black knight**" (**qora jo'mard**) esa uning aksi. U yovuzlik timsoli. Bu jumladagi ma'noda asosiy rol o'ynaydigan birlik "**white**" so'zidir. Ma'lumki, dunyo adabiyotida oq rang azaldan yaxshilik, ezgulik belgisi hisoblangan. Masalan, *Oq-qorani tanigan. Yaxshi bilan yomonni farqlay oladigan kishi.* (O'TIL. O-harfi 175-bet).

Hozirgi kunda "white knight" (oq jo'mard) iborasiga ingliz tilining "Cambridge Advanced Learner's Dictionary" lug'atida quyidagi ta'rif beriladi.

"**White knight** is a person or organization that saves a company from financial difficulties or an unwanted change of ownership by putting money into the company or by buying it" (qiyin vaziyatda qolgan, moliyaviy ahvoli taranglashgan yoki egalik qilish huquqi boshqa shaxsga o'tib ketishi ehtimoli bolgan kompaniyaga pul tikib, uni muqarrar halokatdan olib chiqib ketadigan kishi yoki tashkilot). Iboraga berilgan ta'riflarga e'tibor qaratsak, "white knight" iborasining qadimgi qo'llanishidagi ta'rifi bilan hozirgi kundagi ta'rifi bir xil.

"**White knight**" iborasining ruscha tarjimasi ham inglizcha muqobiliga hamohang ravishda "**рыцаря в белых одеждах**" tarzida o'girilgan bo'lib, yuqorida berilgan ta'riflarga va izohlarga juda mos hisoblanadi. O'zbekcha tarjimasi esa kontekstdagi ma'nodan kelib chiqib "kelajagi porloq nomzod" tarzida berilgan va iboraning ma'nosi unga berilgan inglizcha ta'rifga mazmunan mos hisoblanadi.

2. Aslyatga qo'llangan kollokatsiyalarning rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarda qiyosiy o'rganilishi:

"There was a second, perhaps greater irony: Stanton Rogers' wife, Elizabeth, was social, beautiful and intelligent, and the two of them **shared a common interest** in almost everything,

whereas Barbara, the woman Rogers **fell in love** with and eventually married after a much headlined divorce, was five years older than Stanton, pleasant-faced, rather than pretty, and seemed to have nothing in common with him.” [1:13]

“Возможно, еще большая ирония заключалась в том, что Элизабет, жена Стентона, была общительна, прекрасна и умна. У них **нашлось немало общих интересов**, в то время как Барбара, женщина, на которой Роджерс женился после широко освещенного в СМИ развода, была на пять лет старше его и могла считаться скорее приятной, чем хорошенькой, да и не было между ними, казалось, ничего общего.” [2:8]

“Taqqdirning o‘yinini qarangki, Stenton Rodjersning turmush o‘rtog‘i – Elizabet **hamisha uning manfaatlarini ko‘zlab ish tutadigan** oqila va kelishgan ayol bo‘lsa, Rodjers sevib qolgan va sharmandali ajralishdan keyin uylangan xotin – Barbara esa aksincha, Stentondan besh yosh katt, xunukkina va qiziqishlari tamomila o‘zgacha ayol edi” [3:145]/

Bu gapda **verb + noun (fe‘l + ot)** li kollokatsiya ishtirok etgan. Ma‘lumki, kollokatsiyalar kamida ikkita so‘zdan tashkil topishi kerak va ingliz tilida kollokatsiyalar **ot + ot, sifat + ot, ravish + sifat, ravish + ravish, fe‘l + ot, fe‘l + sifat, fe‘l + ravish** va hkz. shaklida bo‘ladi. Kollokatsiyalarda so‘zlar o‘z ma‘nosida qo‘llanadi. Yuqoridagi misolda asliyatda **to share an interest in** kollokatsiyasiga ingliz tilining “Cambridge Advanced Learner’s Dictionary” lug‘atida quyidagi ta‘rif beriladi: “*If two or more people or things share a feeling, quality, or experience, they both or all have the same feeling, quality, or experience*”, va bu kollokatsiya o‘zbek tilida “*ikki yoki undan ortiq kishilarda his tuyg‘u, xarakter va kechmishlarning bir xil bo‘lishi va ularni birga baham ko‘rmoq*” degan ma‘noni anglatadi. Asliyatdan olingan parchada keltirilgan “**shared a common interest**” kollokatsiyasi rus tilida “**нашлось немало общих интересов**” va o‘zbek tilida “**hamisha uning manfaatlarini ko‘zlab ish tutadigan**” kabi ifodalangan va bu matnning mazmunida to‘la mos keladi.

3. Asliyatga qo‘llangan o‘xshatish (metofora) rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarda qiyosiy o‘rganilishi:

“This politician is nobody’s yes’ man. He was **an oak in the forest of willows**.” [1:16].

“Этот политик не был марионеткой. Но оказался **дубом в ивовой роще**.” [2:9].

“Bu siyosatchi hammaga yaxshi ko‘rinishga intilmas edi. ...” [3:147].

Asliyatda berilgan “**oak**” va “**willow**” so‘zlari denotativ ma‘noda rus tilida “**дуб**” va “**ива**”, o‘zbek tiliga esa “**eman**” va “**majnuntol**” deb tarjima qilinadi. Lekin, metaforik ma‘noda, “**oak**” so‘zi “**qatiiy irodali, bukilmas inson**”, “**willow**” so‘zi esa “**labbaygo‘y, laganbardor, har doim qo‘li ko‘side turadigan inson**” degan ma‘noni anglatadi. O‘zbek tilida ham “**eman**” daraxti “**bukilmas, egilmas, mag‘rur**” ma‘nolarini aks ettirish uchun ishlatiladi.

“*Eman daraxtining egilgani – singani, er yigitning uyalgani – o‘lgani*.” (maqol. O‘TIL. E harfi. 35-bet)

4. Asliyatga qo‘llangan siyosiy terminlarning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarda qiyosiy o‘rganilishi:

“Mossad had a complete file on the Romanian **dissident**.” (1. 23)

“В Моссаде имелось досье на румынского **диссидента**.” (2. 23)

“Mossad maxfiy xizmatida ruminiyalik ana shu **siyosiy muhojir** haqida to‘liq ma‘lumotlar to‘plangan edi.” (2. 151).

Yuqoridagi parchada keltirilgan siyosiy idora nomi (MOSSAD) va boshqa siyosiy terminlar rus va o‘zbek tillariga mos holda o‘girilgan. Faqat “**dissident**” so‘zining tarjimasiga e‘tibor

qaratamiz. **“Dissident”** soʻziga ingliz tili lugʻatlarida **“a person who publicly disagrees with and criticizes their government”** deya taʼrif berilgan va rus tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri **“диссидент”** tarzida tarjima qilinadi. Oʻzbek tiliga esa **“siyosiy muhojir”** tarzida tarjima qilingan va bu aslyatda berilgan **“dissident”** soʻzining maʼnosiga mos emas. **“Muhojir”** soʻziga oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha taʼrif beriladi: **Muhojir** – hijrat qilgan, boshqa joyga koʻchib ketgan. Oʻzi fuqaro boʻlib turgan yoki doimiy yashayotgan mamlakatini tashlab, boshqa davlatga doimiy yashash uchun joʻnab ketuvchi kishi. **“Muhojir”** soʻziga Oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilgan taʼrif bilan, **“dissident”** soʻziga ingliz tilining izohli lugʻatida berilgan taʼrif bir-biriga maʼno jihatdan mos kelmaydi. **“Dissident”** soʻziga ingliz tili lugʻatlarida berilgan taʼrif **“a person who publicly disagrees with and criticizes their government”** oʻzbek tilida **“oʻzi yashab turgan davlatning hukumatini ochiq tanqid qiladigan va uning yuritayotgan siyosatidan norozi boʻlgan shaxs”** degan maʼnoni anglatadi. S.I.Ojegovning **“Тольковый словарь Русского языка”** lugʻatida ham **“диссидент”** soʻziga berilgan taʼrif **“Человек, не согласный с господствующей идеологией, инакомыслящий”** oʻzbek tilidagi **“siyosiy muhojir”** degan maʼnoni bermaydi. Aslyatda berilgan **“Dissident”** soʻzining oʻrniga tarjimon **“siyosiy muxolif”** soʻzini ishlatganda juda mos boʻlar edi. **“Muxolif”** soʻziga oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha taʼrif beriladi: **“Muxolif – teskari, qarama-qarshi; itoatsiz; dushman. Qarama-qarshi fikrda boʻlgan, qarshi chiquvchi, qarshi”** Aynan **“muxolif”** soʻzining oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilgan taʼrifi **“dissident”** soʻziga ingliz tilining izohli lugʻatida berilgan taʼrifga juda mos keladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, frazeologik birliklar (kollokatsiyalar, idiomalar, metaforalar) va siyosiy terminlarni bir tildan boshqa bir tilga oʻgirish masalasi ancha mushkul vazifa. Aynan frazeologik birliklar (kollokatsiyalar, idiomalar, metaforalar) va siyosiy terminlarni tarjimoni ham filologiya, ham siyosat va siyosatshunoslik boʻyicha yuqori darajadagi asosiy malakaga ega boʻlishi va bu sohadagi ilmiy munozaralarning mohiyatini tushunishi kerak.

References:

1. Sydney Sheldon. Windmills of the gods. London, Book Club Associates, 2002.
2. Сидни Шелдон. Мелницы богов. перевод с английского Татьяна Перцева. Москва, издательство АСТ, 2013.
3. Sidni Sheldon. Taqdir tegirmoni. Rus tilidan Bahodir Zokir tarjimas. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009-yil 1-son.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. E – harfi. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. М - ҳарфи. 35-bet. – Toshkent, Oʻz ME. 2008.
5. С. И. Ожегов. Тольковый словарь Русского языка. Москва, 1960.